Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxonov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Irismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuritdinova Dilshodakhon Abdulla kizi	



YASHIL YONDASHUVLAR ASOSIDA BARQAROR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ubaydullaev No'monjon Isroilovich

Tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda institutsional, iqtisodiyot tarmoqlari va yashil mezonlar asosida barqaror iqtisodiyotni shakllantirishga e'tibor berish maqsadga muvofiqligi tadqiq etilgan. Tadqiqotlar asosida yashil iqtisodiyot kategoriyasining rivojlanishi va unga nisbatan yondashuvlarning fundamental jihatlari tizimlashtirilgan. Yashil yondashuvni shakllantirishda yashil iqtisodiyot elementlari uchligi ishlab chiqilgan. Shuningdek, yashil iqtisodiyot va an'aniaviy iqtisodiyotning o'zaro solishtirma tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: qayta tiklanuvchi energiya, yashil iqtisodiyot, resurslarni qayta ishlash, tabiiy kapital, yashil yondashuv, barqaror rivojlanish, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlar.

Abstract: The article examines the feasibility of focusing on the formation of a sustainable economy based on institutional, economic sectors and green criteria in the development of the green economy. Based on the research, the fundamental aspects of the development of the green economy category and approaches to it are systematized. Three elements of the green economy have been developed in the formation of a green approach. A comparative analysis of the green economy and the traditional economy has also been carried out.

Key words: renewable energy, green economy, resource recycling, natural capital, green approach, sustainable development, economic, social and environmental indicators.

Аннотация: В статье рассматривается целесообразность акцентирования внимания на формировании устойчивой экономики на основе институциональных, отраслевых и зеленых критериев развития зеленой экономики. На основе проведенного исследования систематизированы основные аспекты развития категории «зеленая экономика» и подходы к ней. При формулировании зеленого подхода было разработано три элемента зеленой экономики. Также был проведен сравнительный анализ зеленой экономики и традиционной экономики.

Ключевые слова: возобновляемая энергия, зеленая экономика, переработка ресурсов, природный капитал, зеленый подход, устойчивое развитие, экономические, социальные и экологические показатели.

KIRISH

Yashil iqtisodiyot kategoriyasining vujudga kelishi yaqin tarix bilan bog'liq desak to'g'ri bo'ladi. Ushbu kategoriyaning shakllanishi milliy iqtisodiyotlarda sanoatning taraqqiy etishi va tabiiy resurslarga bo'lgan qarashlarning o'zgarishi bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, yalpi ichki mahsulotning yaratilishida uglerodning kam ulushga ega bo'lishi kabi jihatlari bilan izohlash mumkin. Umuman olganda, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga nisbatan qator ustuvorliklar mavjud bo'lsada, mamlakatlar ushbu yunalishlardagi ayrim ishlarni to'laqonli ta'minlashda murakkabliklarga uchramoqda.

Yashil iqtisodiyot ko'plab kategoriyalarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, insonlarning to'laqonli farovonlikda yashashini o'zida aks ettirib beradi. Ko'plab adabiyotlarda insonlarning farovonlikda yashashi ularning daromadlari yuqori bo'lishi yoki ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi kabi jihatlari bilan ifodalashga urg'u beriladi. Shunday bo'lsada, o'tgan asrning oxirgi yillarida iqlimning o'zgarishiga olib keladigan iqtisodiy tendensiyalarni tanqidiy tahlil qilishga e'tibor berish boshlandi. Bu esa, yashil iqtisodiyotning ayrim elementlarini vujudga kelishiga zamin hozirladi.

Jahonning ko'plab olimlari tomonidan aholi turmush farovonligini ta'minlashda ijtimoiy infratuzilma, daromadlarning yuqori bo'lishi kabi holatlar asosiy urg'ulangan omillar sifatida ko'rish mumkin. Biroq, yashil iqtisodiyot kategoriyasiga nisbatan yondashuvlarning vujudga kelishi mazkur qarashlarga nisbatan fikrlarni tubdan o'zgarishiga olib keldi. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot iqtisodiy rivojlanishga nisbatan yashil qarashlarni mustahkamlashga bo'lgan zaruratni keltirib chiqardi. Natijada, iqtisodiy rivojlanish kategoriyasi barqaror rivojlanish kategoriyasi bilan o'zaro o'rin almashganligini kuzatish mumkin.

Bizningcha, yashil iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rish mumkin:

Birinchidan, kam uglerodli iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash. Bunda issiqxona gazlarining chiqarilishini maksimal darajada kamaytirish.

Ikkinchidan, tabiiy resurslardan samarali foydalanish. Bunda tabiiy yashillikni saqlab qolgan holda iqtisodiy ishlab chiqarishni rivojlantirish nazarda tutilsa, boshqa jihatdan qo'shimcha qiymat yaratishda tabiiy erosti



boyliklaridan maksimal darajada kam foydalanish ko'zda tutiladi.

Uchinchidan, sanoat ishlab chiqarish chiqindilarining tabiatga etkazadigan zararini minimallashtirishga erishish.

To'rtinchidan, yashil investisiyalarni rivojlantirish. Bunda qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishga bo'lgan loyihalarni jadal moliyalashtirishni o'zida ifoda etish bilan qayd etiladi.

Beshinchidan, innovasion texnologiyalar asosida kam energiya talab etadigan va zararli chiqindilarni kam chiqaradigan loyihalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bizningcha, yashil iqtisodiyot elementlarini rivojlantirish asosida aholi turmush farovonligini barqaror ta'minlashga imkoniyat vujudga keladi ekan. Bu esa, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qayd etilgan ustuvorliklar asosida jiddiy e'tibor berishni o'zida ifodalab beradi.

Yashil iqtisodiyot kategoriyasi fanga kirib kelishi yaqin tarix bilan bog'langanligini qayd etgan holda ayrim ilmiy adabiyotlardagi xulosalarni ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

1987 yilda Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan dastlabki muhokamlar amalga oshirilgan. Jumladan, "Biz umumiy kelajagimiz" (Our Common Future) nomli ma'ruzasida barqaror rivojlanishga nisbatan ilk yondashuvlar bayon qilinadi. Mazkur ma'ruza Brundland hisoboti tarzida ham mashhur bo'lib, Norvegiyaning 1981-1992 yillardagi Bosh vaziri G.X.Brundland nomi bilan bog'liq hisoblanadi. Ushbu ma'ruza yashil iqtisodiyot yoki yashil yondashuvlarni global siyosat kun tartibiga olib chiqadi. Natijada, iqtisodiy rivojlanish barqaror rivojlanish bilan o'zaro o'rin almashishni boshlaydi.

BMTning atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha komissiya raisi G.X. Brundland 1987 yil 20 mart kuni yashil yondashuvni o'zida aks ettirgan dastlabki global ma'ruzani e'lon qiladi [1]. Mazkur hujjatda global rivojlanishning taqdiri va uning o'zgarishga bo'lgan zaruriy elementlarini ko'rsatishga e'tibor beriladi. Natijada, barqaror rivojlanish kategoriyasi hayotimizga kirib keladi.

B.Kibli tomonidan Brundland hisoboti yuzasidan qilingan ma'ruzani tahlil qilib bera olgan ilk maqolalardan biri hisoblanadi [2]. Hisobotda barqaror rivojlanish – kelajak avlod ehtiyojlarini xatarga qo'ymagan holda hozirgi kundagi hayot ehtiyojlarini taminlashni nazarda tutishni qayd etib o'tadi. Taraqqiyot va atrof-muhitni bir-biridan ajratmaslik kerakligini ta'kidlab o'tiladi. Atrof -muhitning buzilish va tabiiy resurslar uchun global kurashning ortishi urush va inson salomatligi uchun katta xatarlarni keltirib chiqarishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyot borasidagi dastlabki va asosiy ilmiy manbalardan biri bu - D.Pirs va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot hisoblanadi [3]. Mazkur ilmiy asar 1989 yilda Londonda nashr etilgan bo'lib, yashil iqtisodiyot borasidagi ilk ilmiy qarashlarni shakllantirishga xizmat qilganligi bilan ajralib turadi. Ularning fikricha, iqtisod va ekologiyani bir-biridan ajralmas ekanligi, atrof-muhitni iqtisodiy jihatdan baholash va davlatning moliyaviy siyosatidan foydalangan holda atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatib beradi.

Shuningdek, Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan 1992 yil 3-12 iyun kunlari Braziliyaning Rio de-Janeyro shahrida atrof-muhitni asrashga qaratilgan Earth Summit (Er sammit) konferensiyasi tashkil etiladi. Mazkur sammitni o'tkazishdan maqsad global barqaror rivojlanish ko'lamini a'zo mamlakatlar uchun murakkablik tug'dirganligi bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Undan ko'zlangan maqsad barqaror rivojlanish ko'lamini halqaro hamkorlik orqali rivojlantirishga qaratilgan imkoniyatlarni qamrab olish hisoblanadi. Mazkur sammitning asosiy natijasi sifatida iqlim o'zgarishi konvensiyasining qabul qilinishi bilan qayd etish lozim. Sammit konferensiyasida insoniyatning iqlim o'zgarishga salbiy ta'sirini oldini olishga qaratilgan yondashuvlar ilgari suriladi.

X.Dali tomonidan iqtisodiy o'sish emas, balki iqtisodiy rivojlanish muhim ekanligini asoslab beradi [4]. Uning fikricha, ishlab chiqarishning cheklangan sharoitida iste'molni o'sishini ta'minlashga qaratilgan hoyni ilgari suradi. U tomonidan milliy iqtisodiyot tabiat qo'ygan cheklovlar sharoitidagi doimiy xususiyatdagi iqtisodiy tizim ekanligini ko'rsatib beradi. Yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni qisqartirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni ilgari suradi. Shuningdek, har qanday iqtisodiy o'sish muqarrar ekologik xarajatlar bilan ifodalanishini asoslab beradi. Natijada, uning asosiy g'oyasi sifatida yashil o'sishga alternativ qarash – "o'sishsiz barqaror iqtisodiyot" tushunchasi shakllanadi.

N.Stern o'zining tadqiqotida Buyuk Britaniyada iqlim o'zgarishining iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilishga e'tibor qaratadi [5]. Uning ilmiy xulosasida iqlim o'zgarishi tartibga solinmasa YalMning 5-20 foiz atrofidagi hajmi yo'qotilishi mumkinligidan dalolat beradi. Karbon chiqindilarini qisqartirishga qaratilgan yashil texnologiyalar zarurligi iqlim o'zgarishiga nisbatan yondashuvlarni yanada aniqlashtirib beradi. Ushbu tadqiqot natijasida global siyosatda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq elementlar kun tartibiga chiqa boshlagan.

B.Ryazavska tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda yashil iqtisodiyotni baholashga yordam beradigan ko'rsatkichlari yuzasidan amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tematik yo'naltirilgan asosda shakllantirib beradi.



Ushbu metodning ishlab chiqilishi hukumatlar uchun yashil iqtisodiyotni rivojlantirishni baholashga qaratilgan ustuvorlik kasb etishi bilan o'ziga xos xususiyatga ega hisoblanadi [6]. Tadqiqotchi tomonidan barqaror rivojlanish yo'nalishlari asosida mezonlarni shakllantirishga urg'u beradi. Xususan, iqtisodiy ko'rsatkichlar – YalMdagi yashil ulush, tabiiy resurslar samaradorligi, yashil soliqlar ulushi. Ekologik ko'rsatkichlar – karbon chiqindisi, energiya iste'moli, suv resurslaridan foydalanish kabilarni kiritishni taklif etadi. Ijtimoiy ko'rsatkichlarga yashil ish o'rinlari va aholining yashil savodxonlik darajasi kabi jihatlarni keltirib o'tadi.

Y.Chen va boshqalar birgalikda amalga oshirgan tadqiqotlar asosida yashil yondashuvni aniqlash va baholashga qaratilgan ko'rsatkichlarni ishlab chiqishga qaratilganligi bilan ajralib turadi [7]. Ular tomonidan ham yashil ko'rsatkichlar uchta tizimga ajratib ko'rsatiladi. Jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik indikatorlar shular sirasiga kiradi. Ularning fikricha, yashil islohotlarni standartlashtirish (me'yorlash), uni baholash (ball tizimi) va ulushini aniqlash asosida yashil siyosatni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib o'tiladi.


Bizningcha, yashil iqtisodiyot borasidagi qarashlarning paydo bo'lishi global siyosiy unsurlarning kun tartibini o'zgartirishga bo'lgan zaruratni keltirib chiqarish bilan birga, ushbu islohotlarni amalga oshirishda moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni ham keltirib chiqarganligini ko'rish mumkin. Bu esa, global iqtisodiyotdagi qarashlarni butunlay o'zgartirib yuborganligini kuzatish mumkinligini o'zida aks ettirib beradi. Shu boisdan, yashil yondashuvlar iqtisodiyotning ayrim elementlarini emas, balki iqtisodiy siyosatni amalga oshirishga bo'lgan qarashlarni tubdan o'zgartirishni keltirib chiqaradi. Yashil iqtisodiyot elementlarini rivojlantirishda barqaror rivojlanish qoidalarini inobatga olgan holda amalga oshirish jahon hamjamiyati tomonidan ham qabul qilingan qadriyat ekanligini qayd etish lozim. Bu esa, aholi turmush farovonligini iqtisodiy rivojlanish asosida emas, balki barqaror rivojlanish asosida ta'minlash hayotiy muhim omil ekanligini aks ettirib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyotidagi tendensiyalarida ko'rinib turibdiki, iqtisodiy o'sish bilan birga havoga zararli karbonat angdirid gazining ham chiqarilishi oshib borayotganligini kuzatish mumkin (1-rasmga qarang). Jahonda YalMning yaratilishi karbonat angdirid emissiyasini ham oshirishga olib kelayotganligini qayd etish lozim. Shuningdek, Afrika va Osiyo mintaqasi mamlakatlarida zararli gazlarning emissiyasi birmuncha yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Bu esa, ushbu mintaqalarda iqtisodiy rivojlanish mavjud bo'lsada, barqaror rivojlanish qoidalariga e'tibor berish lozimligini ko'rsatib beradi.



1- rasm. 1990-2023 yillarda jahon mintaqalarida CO₂ va YalMning o'zgarish tendensiyalari [8].



Qayd etish lozim, Evropa Ittifoqi mamlakatlarida barqaror rivojlanish to'laqonli ishlayotganligi ko'rish mumkin. Jumladan, 1990-2023 yillarda YaIM 71,8 foizga o'sgan bo'lsa, ushbu davrda karbonat angdirdir emissiyasi 27.6 foizga qisqarganligini kuzatamiz (1-rasmga qarang).

Bizningcha, Evropa Ittifoqi mamlakatlarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga bo'lgan intilishning yuqori ekanligini kuzatish mumkin. so'nggi yillarda milliy daromadni yaratish va uning tarkibida karbonat angdirdir elementining kamayib borishi ekologik vaziyatning mustahkamlanib borishiga olib kelayotganligini ko'rsatib turibdi. Yashil yondashuvning davlat va global darajada keng tus olib borayotganligi qo'shimcha qiymat tarkibida zararli gaz qoldiklarini qisqartirishga bo'lgan g'oyaning mustahkamlanishini ta'minlamoqda.

S.Sarkodiya va boshqalar birgalikda amalga oshirgan tadqiqotlarda global miqyosda yashil rivojlanishning ustuvorliklarini aks ettiradigan mezonlarni ishlab chiqishga e'tibor beriladi [9]. Ular tomonidan CO₂ emissiyasi, energiya samaradorligi, yashil soliqlar, qayta tiklanuvchi energiya ulushi, iqtisodiy o'sishda tabiiy kapitalning ulushi va roli, ish o'rinlarining yashil xususiyat kasb etishi va boshqalar tahlil qilinadi. Ularning fikricha, yashil iqtisodiyotni shakllantirishda yashil moliyaviy siyosat doirasida fiskal rejalashtirishni qo'llash uchun amaliy ko'rsatkichlar asosini yaratishga e'tibor berish muhim hisoblanadi. Shu boisdan, ular tomonidan yashil o'sishni aks ettiradigan yo'nalishlar taklif etiladi (2-rasmga qarang).



2-rasm. yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlari tizimi.

Umuman olganda, shil yondashuvlar asosida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan qator fundamental tadqiqotlar mavjud ekanligini ta'kidlash lozim. R.Kostanza va boshqalar birgalikda amalga oshirgan tadqiqotda ekologik iqtisodiyot kategoriyasini tushuntirib berishga e'tibor qaratishadi [10]. Iqtisodiy jarayonlarni ekotizim bilan o'zaro bog'lashga qaratilgan g'oyalarni tushuntirib beradi. Iqtisodiyotni baholashda tabiiy kapital (suv, havo, biorang-baranglik)ni iqtisodiy resurs sifatida qaraydi. Ekologik tizimning iqtisodiy qiymatga ega ekanligini qayd etadi va ularni tejankorlik va himoya qilish bilan foydalanish lozimligini ta'kidlab o'tadi. Ular tomonidan iqtisodiyot va ekologiya yaxlit tizim sifatida qaraladi, yashil siyosatning fundamental asoslarini yaratishga xizmat qilishgan. Shuningdek, ekologik ahamiyatga ega bo'lgan soliq islohotlarini amalga oshirish nazariy asoslarini taklif etishadi.

Tadqiqotlarimiz asosida ta'kidlash mumkinki, yashil yondashuvlarni shakllantirib bergan ko'plab ilmiy asarlarda ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan xulosalar shakllantirilgan. Mazkur ilmiy yondashuvlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ekologik vaziyatni izdan chiqarmaslik lozimligi alohida qayd etilgan. Jumladan, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tabiiy kapitalni iqtisodiy kapital bilan samarali integratsiya qilish, ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga urg'u berish lozimligi ta'kidlanadi. Boshqa jihatdan, iqtisodiy



o'sishni barqaror iqtisodiyot tamoyiliga almashtirish orqali ekologik xarajat (qiymat yo'qotish)larni qisqartirishga qaratilgan g'oya ilgari suriladi. Shuningdek, iqtisodiy rivojlanish iqlim o'zgarishiga olib kelmasligi lozimligi ta'kidlab o'tiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan izlanishlar natijasida, quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga e'tibor berdik:

Birinchidan, yashil iqtisodiyotni shakllantirishda yashil yondashuvlarni tizimlashtirish va ularni guruhga ajratish muhim. Bunda tabiiy kapitaldan foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya va chiqindilarni qayta ishlash kabi yo'nalishlarni inobatga olish zarur.

Ikkinchidan, yashil yondashuvlarni amalga oshirishda davlat hokimiyati organlarining vakolatlar va majburiyatlar taqsimotini belgilash. Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida yashil iqtisodiyot elementlarini belgilash kabilarni joriy etish.

Uchinchidan, yashil yondashuvni belgilab beradigan va islohotlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan mezonlarni ishlab chiqish. Bunda barqaror rivojlanish elementlari ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy o'lchov birliklarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bizningcha, yashil yondashuv asosida islohotlarni amalga oshirishda uchlik elementlarini inobatga olgan holda bo'lishi muhim bo'ladi, deb o'ylaymiz. Bu esa, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda shart-sharoitni vujudga kelishiga olib keladi, deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda institutsional, iqtisodiyot tarmoqlari va yashil mezonlar asosida barqaror iqtisodiyotni shakllantirishga e'tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Imperatives, S. (1987). Report of the World Commission on Environment and Development: Our common future. Accessed Feb, 10(42,427).
2. Keeble, B. R. (1988). The Brundtland report: 'Our common future'. Medicine and war, 4(1), 17-25.
3. Pearce, D. W., Markandya, A. and Barbier, E. 1989. Blueprint for a Green Economy, Earthscan, London.
4. Daly, H. E. (1991). Steady-state economics: with new essays.
5. Stern, N. (2007). The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge University Press.
6. Ryszawska, B. (2015). Green economy indicators. In "Towards a green economy. From ideas to practice", ed. M. Burchard-Dziubińska, Wydawnictwo Uniwersytetu Łódzkiego, Łódź 2015; Wydawnictwo Uniwersytetu Łódzkiego.
7. Chen, Y., Chen, C. Y., & Hsieh, T. (2011). Exploration of sustainable development by applying green economy indicators. Environmental monitoring and assessment, 182, 279-289.
8. Change in CO₂ emissions and GDP https://ourworldindata.org/grapher/co2-emissions-and-gdp?country=OWID_ASI~OWID_WRL~OWID_EU27~OWID_AFR
9. Sarkodie, S. A., Owusu, P. A., & Taden, J. (2023). Comprehensive green growth indicators across countries and territories, figshare.
10. Costanza, R., Cumberland, J. H., Daly, H., Goodland, R., & Norgaard, R. B. (1997). An introduction to ecological economics. Crc Press.
11. Talqiqotlar asosida ishlab chiqilgan



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>